

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
ENERGETIKA MUAMMOLARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2021.T.143.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY  
TADQIQOT UNIVERSITETI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
ENERGETIKA MUAMMOLARI INSTITUTI**

**DAVIROV ALISHER QUVONDIQ O‘G‘LI**

**PAST BOSIMLI SUV OQIMLARIDA ISHLOVCHI VINT TURBINALI  
MIKROGIDROELEKTRSTANSIYANING ENERGIYA  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**05.05.01 – Energetika tizimlari va majmualari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical  
sciences**

**Davirov Alisher Quvondiq o‘g‘li**

Past bosimli suv oqimlarida ishlovchi vint turbinali mikrohidroelektrstansiyaning energiya samaradorligini oshirish.....3

**Давиров Алишер Кувондик угли**

Повышение энергоэффективности винтовой турбины микрогидроэлектростанции, работающей при низконапорных потоках воды.....23

**Davirov Alisher Kuvondik ugli**

Increasing the energy efficiency of a microhydroelectric screw turbine operating with low-pressure water flows.....43

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....47

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
ENERGETIKA MUAMMOLARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2021.T.143.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY  
TADQIQOT UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
ENERGETIKA MUAMMOLARI INSTITUTI**

**DAVIROV ALISHER QUVONDIQ O‘G‘LI**

**PAST BOSIMLI SUV OQIMLARIDA ISHLOVCHI VINT TURBINALI  
MIKROGIDROELEKTRSTANSIYANING ENERGIYA  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**05.05.01 – Energetika tizimlari va majmualari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/T3938 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Energetika muammolari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.energetika.uz](http://www.energetika.uz)) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Qodirov Dilshod Botirovich**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Qarshibayev Asqarbek Ilashevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Bozarov Oybek Odilovich**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Energetika muammolari instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2021.T.143.01 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100076, Toshkent shahri, Muxtor Ashrafiy ko'chasi 1-muyulish, 9-A. Tel.: (99871) 283-23-08; faks: (99871) 283-23-08; e-mail: [energetika\\_in@umail.uz](mailto:energetika_in@umail.uz)).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Energetika muammolari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100076, Toshkent shahri, Muxtor Ashrafiy ko'chasi 1-muyulish, 9-A. Tel.: (99871) 283-23-08).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**X.M. Muratov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

**J.N. Tolipov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD), katta ilmiy xodim

**O.X. Ishnazarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari  
doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ekologik muvozanatni barqarorlashtirish va energiya resurslarini tashkil etuvchi turli uglevodorodli yoqilg'i-energetika resurslarini tejash, noan'anaviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirishga katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan: suv, quyosh, shamol kabi muqobil energiya manbalaridan foydalanib elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'lami ortib bormoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishda eng samarali yo'nalishlardan biri – bu past bosimli suv oqimlarining energiyasidan foydalanish ya'ni kichik gidroelektrstansiyalar. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda "...dunyo miqyosida 10 MW gacha bo'lgan kichik gidroelektrstansiyalarning o'rnatilgan quvvati 79 GW ga yetib, 2013 yilga nisbatan 2022 yilda kelib kichik va mikro gidroelektrstansiyalarning o'rnatilgan quvvati 10 foizdan oshgan..."<sup>1</sup>. Bu borada, jahon amaliyotida keng rivojlanayotgan markazlashgan energiya ta'minotidan ajralgan, yakka holdagi kichik energetik tizimlar uchun energiya manbasi hisoblanadigan qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan atrof-muhitga zararsiz, ekologik toza, kichik suv oqimlariga moslashtirilgan mikroGESlarni ishlab chiqish va ular orqali yoqilg'i energetika resurslarini tejashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda o'zgaruvchan kichik suv oqimlariga moslashtirilgan mikroGESlarni ishlab chiqish, konstruktiv va energetik parametrlarini asoslash hamda samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan past bosimli kichik daryo va irrigatsiya kanallariga moslashtirilgan elektr energiyasi ishlab chiqarishda ishonchli va ekologik toza texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sohada, jumladan, kichik suv oqimlarida ishlovchi mikroGESlarning ish rejim parametrlarini modellashtirish, konstruksiyasini takomillashtirish asosida past bosimli suv oqimlarida foydalanish samaradorligini oshiruvchi gidroturbinalar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublika iqtisodiyotining muhim va ajralmas tarmog'i bo'lgan energetika sohasini tubdan rivojlantirish va zamonaviy talablar asosida sohaning texnik va texnologik darajasini yangilash, jumladan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ekologik toza elektr energiyasi ishlab chiqarish, shuningdek, iste'molchilarga yetkazib berish ishonchliligini oshirish, elektr energiyasi sarfini kamaytirish, energiya tejaydigan asbob-uskunalar va texnologiyalarni joriy etish hamda mavjud uskunalarni yangilash, jumladan yangi mikroGES o'rnatish, ish rejim parametrlarini asoslash va energiya samaradorligini oshirishga doir keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "...qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va qo'llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqish, 2026 yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga

---

<sup>1</sup> <https://www.unido.org/sites/default/files/files/2023-08/Global-WSHPDR-2022.pdf>

yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash...”<sup>2</sup> vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish, jumladan past bosimli suv oqimlarida ishlovchi vint turbinali mikroGESning maqbul o‘lchamini aniqlash asosida takomillashtirilgan mikroGES gidroturbinasining yangi modelini ishlab chiqish kabi masalalar yechishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021 yil 10 dekabrda PQ-44-son “Gidroenergetikani yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022 yil 6 iyuldagi PQ-307-son “2022-2026 yillarda O‘zbekiston respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda 2023 yil 30 martdagi PQ-104-son “Gidroenergetika sohasini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning 2. “Energetika, energotejamkorlik va muqobil energiya manbalari” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

**Muammoni o‘rganilganlik darajasi.** Bugungi kunda past bosimli suv oqimlarida ishlovchi mikroGESlarni rivojlantirish va energiya samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan The University of Guelph (Kanada), Milliy tadqiqot universiteti “MEI” va Sank-Peterburg davlat politexnika universiteti (Rossiya), Alternative Energy Institute (AQSH), Department of Electrical Engineering University of Engineering Technology (Pokiston), Iranian Research Organization for Science and Technology (Eron), School of Electrical and Automation Engineering Harbin Institute of Technology Harbin Heilongjiang (Xitoy), Queen’s University Belfast (Buyuk Britaniya), University of Rostock, Institute of Hydraulic Engineering and Water Resources Management (Germaniya), Polytechnic University of Turin, Sapienza University of Rome (Italiya), Tribhuvan University (Nepal), Institut National des Sciences Appliquees (Fransiya) Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, Farg‘ona politexnika instituti, Fanlar akademiyasi Energetika muammolari instituti, Andijon mashinasozlik institutida (O‘zbekiston), keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Jahon amaliyotida mikroGESlar qurilmasining takomillashgan konstruksiyasini sanoat, ishlab chiqarish korxonalarida qo‘shimcha elektr energiya

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi/ to‘g‘risida”gi farmoni

manbasi sifatida foydalanishni rivojlantirish, past bosimli suv oqimlarida ishlovchi mikroGESlarni ishlab chiqish va samaradorligini oshirishning ilmiy-texnik masalalarni hal qilishga bir qator taniqli xorijiy olimlardan E.Quaranta, G.Myuller, Ch.Xaron, D.Nuernbergk, K.Kostina, W.Lubitz, F.Vaychbrodt, K.Lotar, S.Scott, C.Simmons, A.Kozyn, K.Songin, A.Raza, A.Doost, Yu.Gashinskiy, N.Kangali, C.Rorres K.Shahverdi, S.Umbetov va boshqa olimlar o'z tadqiqotlari bilan katta hissa qo'shganlar.

Respublikada R.Zaxidov, X.Muratov, M.Muhammadiyev, B.Urishev, S.Ergashev, R.Aliyev, A.Umurzakov, D.Qodirov, O.Toirov, O.Bozarov, U.Odamov, Sh.Toshev, A.Mamadjanov va boshqalar tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan hamda ijobiy natijalarga erishilgan.

Sezilarli muvaffaqiyatlarga qaramay, hududlarimizda mavjud past bosimli suv oqimlari potensialidan elektr energiya ishlab chiqish tizimlarini yaratish, past bosimli suv oqimlarida ishlovchi vint turbinali mikroGESlarning energiya samaradorligini oshirish maqsadida turbina geometrik parametrlarini maqbul qiymatlarini tanlash, gidroturbinadagi mexanik quvvatni oshirishda ikkita parallel vintli turbina zanjirili uzatma orqali bitta generatorga ulanish asosida mikroGESning energiya samaradorligini oshirish, parraklarning suv bilan ta'sirlashish kuchlarini kamaytirishda vintning uzunligi va qiyalik burchaklarini maqbul qiymatlarini tanlash bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha e'tibor berilmagan.

Mazkur dissertatsiya ishida gidroturbina parraklariga suv oqimining ta'sir kuchini oshirish maqsadida qiyalik burchagining maqbul qiymatini aniqlash, qurilmaning konstruktiv parametrlarini matematik modellashtirish va suv oqimi miqdorini inobatga olib ish rejimini hisoblash algoritmini ishlab chiqish hamda past bosimli suv oqimlarida ishlovchi vintli turbinaning maqbul o'lchamini aniqlash asosida mikroGESni takomillashtirilgan eksperimental modelini ishlab chiqilib, uning yechimlari taklif etilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-307-sonli qarorining 7-ilovasida 2022-2023 yillarda oliy ta'lim muassasalari tomonidan yangi ishlanma va texnologiyalarni joriy etish loyihalarini amalga oshirish dasturiga asosan "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Past bosimli suv oqimlari uchun energiya samarador MikroGES prototipini yaratish" (2022) hamda 2019/5-son "Past bosimli suv oqimlari va nasos stansiyalarining suv tashlash hovuzlarida kichik quvvatli mikro gidroelektrstansiya ishlab chiqish va o'rnatish" (2019) mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** past bosimli suv oqimlarida ishlovchi vint turbinali mikrogidroelektrstansiyaning konstruktiv parametrlarini takomillashtirish asosida energiya samaradorligini oshirishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

respublikadagi gidroenergetik resurslardan elektr energiyasi olish ko'rsatkichlarini baholash va past bosimli suv oqimlarida ishlovchi mikrogidroelektrstansiyaning energiya samaradorligini aniqlash;

past bosimli suv oqimlarida ishlovchi vint turbinali mikrogidroelektrstansiyaning matematik modellashtirish asosida konstruktiv parametrlarini takomillashtirish;

vint turbinali mikrogidroelektrstansiyaning virtual modeli asosida sinov tajriba namunasini ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan vint turbinali mikrogidroelektrstansiyaning energiya samaradorligini baholash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida past bosimli suv oqimlariga moslashtirilgan vint turbinali mikroGES olingan.

**Tadqiqotning predmeti** past bosimli suv oqimlarida ishlovchi vint turbinali mikroGES qurilmasi, unda kechayotgan jarajonlari va uning energiya samaradorligini baholashdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida matematik modellashtirish nazariyasi, ma'lumotlarni qayta ishlashda matematik statistika, mexanika va elektr texnikasi nazariyasi, tajriba natijalarini qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

gidroturbinaning konstruktiv parametrlarini ratsional aniqlash imkonini beruvchi analitik ifoda shakllantirilgan va u asosida gidroturbinaning ishchi parametrlari asoslangan;

past bosimli suv oqimlarida ishlovchi vint turbinali mikrogidroelektrstansiyaning energiya yo'qotishlarini minimallashtirish asosida samaradorligini oshirish algoritmi yaratilgan;

parallel ulangan vintli gidroturbinaning generator bilan birikish burchagini ratsional aniqlash asosida energiya samaradorligi oshirilgan mikrogidroelektrstansiyaning immitatsion fizik modeli ishlab chiqilgan;

past bosimli suv oqimlarida ishlovchi mikrogidroelektrstansiyaning gidroturbinasini energiya samarador ish rejimlari va energetik xarakteristikalarini aniqlash imkonini beruvchi qurilma modeli ishlab chiqilgan (FAP 02263).

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

past bosimli suv oqimlarida ishlovchi vint turbinali mikroGES quvvati hududning individual omillariga bog'liqligini aniqlash imkonini beruvchi dasturi ishlab chiqilgan;

past bosimli suv oqimlarida samarali ishlovchi vint turbinali va unda sodir bo'ladigan jarayonlarning matematik modeliga asoslangan mikroGESning takomillashtirilgan kichik modeli ishlab chiqilgan;

muqobil energiya manbalari asosidagi mikroGESning elektr tizimlari strukturasi va ish rejim holatini tadqiq qilish uchun immitatsion va fizik modellari ishlab chiqilgan va amaliyotda qo'llanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kichik suv oqimlarida ishlovchi mikroGES bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar

o‘tkazish, olingan natijalar va ularning o‘zaro muvofiqligi, olib borilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan past bosimli suv oqimlariga moslashtirilgan mikroGES sinov-tajriba natijalari “Samarqand gidroelektrstansiyalari kaskadi” unitar korxonasi joriy etish orqali asoslanganligi, shuningdek, nazariy va tajribaviy natijalarning mos kelishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan past bosimli suv oqimlarida ishlovchi mikroGES ishlab chiqargan elektr energiyasining suv oqim miqdoriga bog‘liqligi va elektr energiyasi sifat ko‘rsatkichlarini o‘rganish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati past bosimli suv oqimlarida ishlovchi energiya samarador vint turbinali mikroGES gidroturbinasidagi mexanik quvvatni oshirish asosida ishonchli elektr energiyasi ishlab chiqarish bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Past bosimli suv oqimlarida ishlovchi vint turbinali mikroGESning energiya samaradorligini oshirish asosida olingan natijalar:

gidroturbinadagi mexanik quvvatni oshirish maqsadida ikkita parallel vintli turbina zanjirli uzatma orqali bitta generatorga ulangan mikrogidroelektrstansiya “Samarqand gidroelektrstansiyalari kaskadi” unitar korxonasi joriy qilingan (“O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatining 2024 yil 10 yanvardagi 02-28/88 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, past bosimli suv oqimlarida ishlovchi shu turdagi gidroturbinalarga nisbatan 20 % ga energiya samarador ekanligi aniqlangan.

vintli gidroturbinaning maqbul o‘lchamlarini aniqlash asosida ishlab chiqilgan mikrogidroelektrstansiya “Samarqand gidroelektrstansiyalari kaskadi” unitar korxonasi joriy qilingan (“O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatining 2024 yil 10 yanvardagi 02-28/88-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, energiya samarador vint turbinali mikrogidroelektrstansiya yordamida 24966 kW·h elektr energiyasi ishlab chiqarishga imkon yaratilgan.

past bosimli suv oqimlarida ishlovchi qurilma uchun O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining foydali modelga patenti olingan (“Arximed vintli turbina” № FAP 02263. 07.11.2022). Natijada past bosimli suv oqimlarida ishlovchi energiya samarador vint turbinali mikroGES ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan, 6 ta xalqaro konferensiyalarda va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasining texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqolalar, jumladan 7 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda, 5 ta Scopus bazasiga kiruvchi chet el ilmiy jurnallaridagi to‘plamlarda nashr etilgan, Intellektual mulk agentligi tomonidan 1 ta foydali model uchun patent hamda 1 ta EHM dasturi uchun guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**


**Kirish** qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari tavsiflangan, tadqiqot obyekti hamda predmeti aniqlangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi belgilab olingan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari aniqlangan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Energetika tizimida mikrogidroelektrstansiyalardan samarali foydalanishning zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari”** deb nomlangan birinchi bobida energetika tizimida mikro gidroelektrstansiyalardan foydalanishda jahon tajribasi, O‘zbekistonda mikro gidroelektrstansiyalardan foydalanishning zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari, respublikadagi gidroenergetik resurslardan elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatlari hamda past bosimli suv oqimlari energiyasidan foydalanish yo‘llari tahlillari keltirilgan. Mikro gidroelektrstansiyalarni ishlab chiqish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish hamda yangi turdagi maxsus energiya samarador konstruksiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha bir qancha usullar va bu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan bir guruh olimlarning ilmiy ishlari ko‘rib chiqilgan hamda tahlili keltirilgan. Tahlillar natijasida past bosimli suv oqimlarida ishlovchi vint turbinali mikro gidroelektrstansiyalarning energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha dissertatsiyaning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Past bosimli suv oqimlarida ishlovchi vintli gidroturbinaning konstruktiv parametrlarini asoslash”** deb nomlangan ikkinchi bobida past bosimli suv oqimlarida ishlovchi gidroturbinalar uchun qo‘yiladigan asosiy talablar, mikro gidroelektrstansiyaning konstruktiv parametrlarini matematik modellashtirish, vintli gidroturbinaning konstruksiyasini modellashtirish, past bosimli suv oqimlarida ishlovchi energiya samarador vintli gidroturbinaning ish rejim parametrlarini asoslash bo‘yicha matematik ifodalar keltirilgan.

Arximed vint turbinali mikro gidroelektrstansiyalar past bosimli suv oqimlarida yoki bosim hosil qiluvchi balandlik deyarli nol bo‘lgan joylarda ham foydalaniladi. Vintli turbinalar suyuqlikning kinetik va potensial energiyalaridan foydalanadi hamda bu energiya vintni aylantirish va moment hosil qilish jarayonida mexanik ishga aylanadi. Vintlarga biriktirilgan generator hosil bo‘lgan mexanik energiyani elektr energiyaga aylantiradi. Vintli turbinalarda tashqi diametr ( $D_o$ ), ichki diametr ( $D_i$ ), vintni umumiy uzunligi ( $L$ ), pichoqlar soni ( $N$ ), vintning qiyalik burchagi ( $\beta$ ), Pichoqning bir marta aylanish davr uzunligi ( $S$ ), bosim hosil qiluvchi balandlik ( $H$ ) va suv sarfi ( $Q$ ) ushbu parametrlar maqbul variantlarini tanlash asosida samaradorlik va mexanik quvvatni oshishiga erishiladi. “w” o‘qi markaziy silindrsimon parrakning aylanish o‘qi bilan tekislanadi va vertikal yo‘naltirilgan Dekart o‘qi “z” ham musbat z ham vertikal yuqoriga qarab

belgilanadi. Ushbu vertikal o‘q, vertikal o‘qqa spiral tekislik yuzalarida parraklar o‘rnatiladigan joylarni loyihalash orqali vintni aylantiradigan doimiy suv chuqurliklarini hisoblash uchun ishlatiladi. Birinchi yetakchi spiral tekislik qirrasini vintning yuqori qismida vertikal yo‘naltirilgan deb qabul qilinadi. Shunday qilib, ( $w$ ) o‘qi bo‘ylab har qanday pozitsiya uchun yetakchi tekislikdagi 1-parrak radial joylashuvi ( $r(\omega)$ ) va burchak joylashuvi ( $\theta(\omega)$ ) pichoqning bir marta aylanish davr uzunligi ( $S$ ) bo‘lgan geometriya bilan tavsiflanadi.



**1-rasm. Aylanadigan vintning koordinatalar tizimi.**

Yuqorida aytilgan vintning geometriyasiga ko‘ra, geometrik parametrlar quyidagi ifodalar orqali belgilanadi:

$$r(w) = r \quad (1)$$

$$\theta(w) = 2\pi \frac{w}{S}, \quad (2)$$

bunda,  $r$  - radial joylashuvi va  $\theta$  - burchak joylashuvi (1-rasm).  $S$  – pichoqning bir marta aylanish davr uzunligi; pichoqlar soni ( $N$ ) bo‘lgan vint uchun  $X(r, \theta)$  kabi istalgan nuqtada 1- spiral tekislik yuzasidagi pastki ( $Z_1$ ) va yuqori oqimdagi ( $Z_2$ ) suv kirish sathlarining holatini quyidagi formulalar bilan aniqlash mumkin:

$$Z_1 = r \cos(\theta) \cos(\beta) - \frac{S\theta}{2\pi} \sin(\beta) \quad (3)$$


$$Z_2 = r \cos(\theta) \cos(\beta) - \left( \frac{S\theta}{2\pi} - \frac{S}{N} \right) \sin(\beta) \quad (4)$$

Yuqoridagi (3) va (4) formulalardan kelib chiqib vint joylashtirilgan latogda minimal to‘ldirish balandligi  $\theta = \pi$ ,  $r = D_o/2$  da hamda maksimal (100%) to‘ldirish balandligi  $\theta = 2\pi$  va  $r = D_i/2$  teng bo‘lganda yuzaga kelishini qabul qilish mumkin. Shuning uchun minimal suv sathi  $Z_{\min}$ , maksimal suv sathi ya‘ni parraklarni to‘liq suvga botishi (suv toshib ketmasdan)  $Z_{\max}$  va parraklarni aylantirish uchun kerak bo‘ladigan maqbul haqiqiy suv sathi  $Z_{wl}$  bilan aniqlanadi(2-rasm) hamda

o'lchovsiz(nisbiy) suv to'ldirish balandligi ( $f$ ) bilan bog'liqligi quyidagi formulalardan ko'rish mumkin:

$$Z_{min} = -\frac{D_o}{2} \cdot \cos(\beta) - \frac{S}{2} \cdot \sin(\beta) \quad (5)$$

$$Z_{max} = \frac{D_i}{2} \cdot \cos(\beta) - S \cdot \sin(\beta) \quad (6)$$



**2-rasm. Suvning parraklarga urilish holatlari.**

To'ldirish faktori  $f$  ni nisbiy sath sifatida kiritish orqali haqiqiy suv sathini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$Z_{wl} = Z_{min} + \frac{Z_{wl} - Z_{min}}{Z_{max} - Z_{min}} (Z_{max} - Z_{min}) = Z_{min} + f(Z_{max} - Z_{min}) \quad (7)$$

Agar (7) formuladagi haqiqiy suv sathini topishda o'lchovsiz(nisbiy) suv to'ldirish balandligi  $f = 0$  bo'lsa  $Z_{wl} = Z_{min}$ ,  $f = 1$  bo'lsa  $Z_{wl} = Z_{max}$ ,  $f > 1$  bo'lsa parrakni suvga botish darajasi 100% dan oshib ketadi, bu esa suvni markaziy silindrning yuqori qismidan toshib ketishi suvning isrofiga hamda turbinaning aylanish tezligini pasayishiga olib keladi.

Parraklarga uriladigan suv hajmini ( $dV$ ) parrak yuqori va quyi tekisliklarning qo'shni nuqtalarini bog'laydigan "w" o'qiga parallel ravishda aniqlanishi mumkin. Bunda  $\theta$  - burchak joylashuvi 0 dan va  $2\pi$  oralig'ida hamda  $r$  - radial joylashuvi esa  $D_i/2$  dan  $D_o/2$  oralig'ida qabul qilinadi va parrakka to'liq uriladigan suvning umumiy hajmini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$dV = \begin{cases} 0 & Z_1 > Z_{wl} \text{ va } Z_{wl} < Z_2 \\ \frac{Z_{wl} - Z_1}{Z_2 - Z_1} \frac{S}{N} r dr d\theta & Z_1 \leq Z_2 \text{ va } Z_{wl} \leq Z_2 \\ \frac{S}{N} r dr d\theta & Z_1 < Z_{wl} \text{ va } Z_{wl} > Z_2 \end{cases} \quad (8)$$

$$V = \int_{r=\frac{D_i}{2}}^{r=\frac{D_o}{2}} \int_{\theta=0}^{\theta=2\pi} dV \quad (9)$$

$$V = \int_{\frac{D_i}{2}}^{\frac{D_o}{2}} \int_0^{2\pi} dV = \begin{cases} 0 & Z_1 > Z_{wl} \text{ va } Z_{wl} < Z_2 \\ \int_{\frac{D_i}{2}}^{\frac{D_o}{2}} \int_0^{2\pi} \frac{Z_{wl} - Z_1}{Z_2 - Z_1} \frac{S}{N} r dr d\theta & Z_1 \leq Z_2 \text{ va } Z_{wl} \leq Z_2 = \\ \int_{\frac{D_i}{2}}^{\frac{D_o}{2}} \int_0^{2\pi} \frac{S}{N} r dr d\theta & Z_1 < Z_{wl} \text{ va } Z_{wl} > Z_2 \end{cases}$$

$$= \begin{cases} 0, & Z_1 > Z_{wl} \text{ Ba } Z_{wl} < Z_2 \\ \frac{\pi(Z_{wl} - Z_1)}{4(Z_2 - Z_1)} \frac{S}{N} (D_0^2 - D_i^2), & Z_1 \leq Z_2 \text{ Ba } Z_{wl} \leq Z_2 \\ \frac{\pi S}{4N} (D_0^2 - D_i^2), & Z_1 < Z_{wl} \text{ Ba } Z_{wl} > Z_2 \end{cases}$$

Vint parraklariga uriladigan suv hajmini topib olgach vintning spiralsimon tekisliklariga suv bosimining urilishi natijasida hosil bo'ladigan kuch momentini topib olamiz. Vint parraging tekislik yuzasidagi pastki ( $Z_1$ ) va yuqori ( $Z_2$ ) suv kirish sathlarining statik sharoitlarni hisobga olgan holda tekislik yuzalarining istalgan nuqtasidagi gidrostatik bosim ( $p$ ) ni quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$p_1 = \begin{cases} \rho g (Z_{wl} - Z_1) & Z_1 < Z_{wl} \\ 0 & Z_1 \geq Z_{wl} \end{cases} \quad (10)$$

$$p_2 = \begin{cases} \rho g (Z_{wl} - Z_2) & Z_2 < Z_{wl} \\ 0 & Z_2 \geq Z_{wl} \end{cases} \quad (11)$$

Vint tekislik yuzalaridagi aniq bosim parrakning yuqori va quyi oqim yuzalaridagi bosimlar o'rtasidagi farqdir. Shuning uchun, agar  $p_1$  va  $p_2$  tekislik yuzasining har bir tomonidagi bosim sifatida qabul qilinsa, vint tekislik yuzasining har bir element maydonidagi aniq momentni ( $dT$ ) va bitta parrakdagi umumiy momentni ( $T$ ) barcha suv ostidagi yuzalar bo'ylab umumiy momentni hisoblash mumkin:

$$dT = (p_1 - p_2) \frac{S \theta}{2\pi} r dr d\theta \quad (12)$$

$$T = \int_{r=\frac{D_i}{2}}^{r=\frac{D_o}{2}} \int_{\theta=0}^{\theta=2\pi} dT \quad (13)$$

$$T = \int_{\frac{D_i}{2}}^{\frac{D_o}{2}} \int_0^{2\pi} (p_1 - p_2) \frac{S \theta}{2\pi} r dr d\theta = \frac{S}{8} (p_1 - p_2) (D_0^2 - D_i^2)$$

Vintning to'liq uzunligi uchun gidrostatik bosim natijasida hosil bo'lgan umumiy moment pichoqlarning umumiy soniga bog'liq va uni quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$T_{umumiy} = T \left( \frac{NL}{S} \right) = \frac{NL}{8} (p_1 - p_2) (D_0^2 - D_i^2) \quad (14)$$

bunda,  $N$  – pichoqlar soni;  $L$  – vint umumiy uzunligi;  $S$  – pichoqning bir marta aylanish davr uzunligi;  $T$  – bitta parrakdagi moment.


Doimiy aylanish tezligi ( $\omega$ ) berilgan, lekin suvning vint o‘rnatilgan latogidan ortiqcha oqishi ya’ni suv oqimi bilan hosil bo‘ladigan quvvat yo‘qotishlari inobatga olinmagan umumiy chiquvchi quvvat quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$P_{\text{chiq}} = T_{\text{um}} \omega = \frac{NL\omega}{8} (p_1 - p_2)(D_0^2 - D_i^2) \quad (15)$$

Dissertatsiyaning “**Vintli gidroturbinaning ish rejim parametrlarini asoslashda nazariy va tajribaviy tadqiqotlar**” deb nomlangan uchinchi bobida ishlab chiqilgan mikro gidroelektrstansiya texnik talablarga mosligini nazariy asoslangan, matematik model asosida vintli gidroturbinaning kichik modelini ishlab chiqish, vintli gidroturbinaning sinov-tajriba namunasida tajriba tadqiqotlarini o‘tkazish, mikro gidroelektrstansiya yordamida ishlab chiqarilgan elektr energiyasining sifat ko‘rsatkichlarini baholash keltirilgan.


Past bosimli suv oqimlarida ishlovchi vint turbinali mikro gidroelektrstansiyaning kichik laboratoriya modelini, samaradorligi yuqori bo‘lishida asosiy o‘rin tutadigan parametrlarini taqqoslash orqali ishlab chiqildi. Dastlab turbinaning qiyalik burchagi  $\beta$ , bosim hosil qiluvchi balandligi  $H$ , balandlikning  $H = 0,1$  dan  $1 m$  gacha qiymatlarda moment va quvvatning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi parametrlar taqqoslandi.

Dastlabki taqqoslash natijalarini turbina valiga spiralsimon payvandlangan pichoqlarning soni bo‘yicha olib borildi. Arximed vintli turbinalarda pichoqlar soni yuqori samaradorlikka erishishda muhim o‘rin tutadigan parametrlardan biri hisoblanadi. Ko‘p sonli pichoqlardan foydalanganda har bir pichoqda hosil bo‘ladigan kuch momenti sabab quvvat tenglamalarida o‘zgarish bo‘ladi. Turbinaning aylanishi odatda pichoqlar orqali yuqoridan pastga harakatlanuvchi suvning massasi natijasida hosil bo‘ladigan kuchga bog‘liqdir. O‘tkazilgan taqqoslash jarayonida pichoqlar sonini  $N = 1$ ,  $N = 3$ ,  $N = 5$  qabul qilindi.



**3-rasm. Pichoqlar soni o‘zgarishida kuch momentining o‘zgarish grafigi.**


Natijalardan ko‘rinib turibdiki, qo‘shimcha pichoqlarning kiritilishi kuch momenti kamayishiga olib keldi bu o‘z navbatida (15) formulaga asosan turbinaning chiquvchi quvvatining kamayishiga olib keladi. Pichoqlar sonini qiyalik burchaklariga nisbatan tekshirilganda vint uzunligini 1 m, 2 m va 2,5 m uzunliklarda va vintning pichoqlari sonini  $N = 1$ ,  $N = 3$ ,  $N = 5$  qo‘yib ko‘rilganda qiyalik burchagi  $24^{\circ}$  ga teng bo‘lganda 1 pichoqli vintli turbinaning foydali ish koeffitsiyenti yuqori chiqqanini ko‘rish mumkin(4-rasm).



**4-rasm. Vint uzunligi  $L= 1$  m va pichoqlar soni  $N = 1, N = 3, N = 5$  da qiyalik burchagi o‘zgarishi ostida foydali ish koeffitsiyenti o‘zgarishi.**

Vint eng yuqori samaradorlikka  $24^{\circ}$  qiyalik burchagi bo‘lganda va vint pichoqlari soni bitta bo‘lganda erishdi. Vint uzunligini oshirish pastki qiyalik burchagida yuqori samaradorlikni keltirib chiqaradi degan xulosaga kelish mumkin, chunki turbina pichoqlarida aniq gidrostatik bosim kuchayadi. Vint pichoqlari soni ma’lum bir vint uzunligida ko‘payganda, ishqalanish yo‘qotishlari ortadi va samaradorlikni pasayishiga olib keladi.

Pichoqlar soni bo‘yicha taqqoslash olib borilgach endi pichoqning bir marta aylanish davr uzunligini vint tashqi diametriga nisbati bo‘yicha natijalarni olindi  $\sigma = S/D_o$ .




**5-rasm. Parraklar orasidagi masofa o‘zgarganda kuch momentining o‘zgarish grafigi.**

Natijalarni taqqoslashda balandlikni  $H=0,1$  m dan  $H=1$  m gacha bo'lgan qiymatlardan foydalanildi. Natijalaridan ko'rish mumkinki pichoqning bir marta aylanish davr uzunligini vint tashqi diametriga nisbati kattalashganda balandlikka nisbatan kuch momentining ortishini. Bunda parraklar orasidagi masofa ortganda parraklar sonining kamaygani va natijada chiquvchi quvvatning ortishiga olib keldi

Vintlarning tashqi diametri quvvat ishlab chiqarishda asosiy parametrlardan hisoblanadi. Oqim kelib urilganda parraklarning foydali yuzasi qancha katta bo'lsa unda hosil bo'ladigan kuch momenti ham shunga nisbatan ortadi. Navbatdagi natijalarni vintning ichki diametrini tashqi diametrga nisbati  $\delta = D_i/D_o$  orqali hisoblangan ( $0 \leq \delta \leq 1$ ). Ushbu ichki diametrning tashqi diametrga nisbatni o'zgartirib, ichki valning o'lchami kattalashtirildi yoki tashqi maksimalga nisbatan kamaydi. Natijada ichki diametrning kichiklashganda va tashqi diametr kattalashganda kuch momentini ortganini ko'rish mumkin.


Natijalar shuni ko'rsatadiki vintning tashqi va ichki diametrlari juda muhim parametr ekanligini. Bosim hosil qiluvchi balandlik kattalashganda vintning ichki diametrini tashqi diametrga nisbati  $\delta=0,25$  va  $\delta=0,75$  orasidagi farq deyarli ikki barobarga ortganini ko'rish mumkin. Vintli turbina ichki va tashqi diametrlarining maqbul o'lchamlari natijalar orqali aniqlab olindi.



**6-rasm. Vint ichki diametrini tashqi diametriga nisbati o'zgariganda kuch momentining o'zgarish grafigi.**

Yana bir asosiy parametr vintning umumiy uzunligini o'zgartirish orqali kuch momentining o'zgarishi keltirilgan. Barqaror sharoitda (barqaror oqim, doimiy aylanish tezligi) ishlayotgan ideal vint uchun barcha parraklar bir xil shaklga va hajmga ega bo'ladi. Parrakning shakli va o'lchami vintning geometriyasi, vintning aylanish tezligi va vintdagi suvning hajmiy oqimi  $Q$  bilan belgilanadi. Model ideallashtirilgan cheksiz uzun vintning bir parragidagi kuchlar va oqimlarni aniqlaydi. Vint ichidagi barcha parraklar ushbu ideallashtirilgan parrak bilan bir xil tarzda samarali ishlaydi deb qabul qilinadi. Keyinchalik, umumiy vint quvvatini hisoblash uchun kuchlar, momentlar va quvvat vintning umumiy uzunligi  $L$  asosida (uzunligiga ko'paytirgan holda) kattalashtirilishi mumkin. Natijani olishda vintning


uzunligi sezilarli darajada o'zgartirildi. Vintning tashqi diametri bir xil deb qabul qilindi, shuning uchun parraklar soni o'zgarmaydi. Natijalardan ko'rish mumkinki tanlangan qiymatlarning keng diapazoni o'rtasidagi farq juda kichik, ya'ni unumdorligi sezilarli darajada oshmasa, boshqa bir qancha uzunliklarga qaralganda kichikroq o'lchamga ega bo'lish maqbul qiymat hisoblanadi.



**7-rasm. Vint umumiy uzunligi o'zgariganda kuch momentining o'zgarish grafigi.**

Yuqorida keltirilgan xisobiy natijalar asosida vint turbinali mikro gidroelektrstansiyaning 3D modeli hamda kichik fizik modeli ishlab chiqilgan.

Nomlanishi	Parametrlar	Parametr birligi
Vint uzunligi	L	0.98 m
Pichoqlar soni	N	1
